

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.T.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

SADIKOVA GULNOZA KUDRATILLAYEVNA

**PAXTA-IPAK ARALASH TOLALI TO‘QIMACHILIK MATERIALLARINI
KIMYOVIY PARDOZLASHNING NAZARIY ASOSLARI**

**05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi
va xomashyoga dastlabki ishlov berish
(texnika fanlari)**

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtorefarati mundarijasi
Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации
по техническим наукам
Contents of the abstract of doctor (DSc) dissertation

Sadikova Gulnoza Kudratillayevna

Paхта-ipak aralash tolali to‘qimachilik materiallarini kimyoviy pardoqlashning nazariy asoslari..... 3

Садикова Гульноза Кудратиллаевна

Теоретические основы химической отделки текстильных материалов из смеси хлопка и шёлка.....31

Sadikova Gulnoza Kudratillaevna

Theoretical foundations of chemical finishing of cotton-silk blended textile materials.....61

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works65

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.T.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

SADIKOVA GULNOZA KUDRATILLAYEVNA

**PAXTA-IPAK ARALASH TOLALI TO‘QIMACHILIK MATERIALLARINI
KIMYOVIY PARDOZLASHNING NAZARIY ASOSLARI**

**05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi
va xomashyoga dastlabki ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Texnika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.DSc/T976 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.titli.uz) hamda «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Xudayberdiyeva Dilfuza Baxramovna,
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xanxadjayeva Nilufar Rahimovna,
texnika fanlari doktori, professor

Valiev G'ulom Nabijonovich,
texnika fanlari doktori, professor


Yaminzoda Zarrina Akram,
texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: O'zbekiston tabiiy tolalar ilmiy tadqiqot instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.T.21.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 9 aprel 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100100, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Shohjahon 5. Tel: (+99871) 253-06-06; faks: (+99871) 253-36-17, titlp info@edu.uz. Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti ma'muriy binosi, 2-qavat, 222-xona).

Dissertatsiya bilan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (285-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100100, Yakkasaroy tumani, Shohjahon ko'chasi, 5. Tel: (+99871) 253-08-08.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil 24 mart kuni tarqatildi.
(2026 yil 17 fevraldagi 285-raqamli reysr bayonnomasi)



X.H.Kamilova,
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, t.f.d., professor



A.Z.Mamatov,
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor



Sh.Sh.Xakimov,
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi t.f.d., professor

KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda tabiiy tolalardan tayyorlangan to‘qimachilik materiallariga bo‘lgan talab ortib, kiyim-kechak uchun mo‘ljallangan materiallar tobora ommalashib bormoqda. Jahon miqyosida asosiy paxta yetishtiruvchi davlatlar Xitoy, Amerika Qo‘shma Shtatlari, Hindiston va Pokiston bo‘lib, bu davlatlarda paxta yetishtirish 70 % dan ortiqini tashkil etadi¹. Ipak tolalari oqsil tuzilishi tufayli inson tanasi yuzasi yaqinida qulay mikroiklim yaratadi. Matoning sellyuloza komponenti nisbatan qimmat xomashyoni tejash imkonini beradi. Tabiiy tolalarning turli nisbatdagi aralashmalarini hosil qilish natijasida mahsulotga qimmatli xususiyatlar majmuasini maqsadli ravishda berish, ipak va paxta tolasidan tayyorlangan gazlama va trikotaj buyumlar assortimentini kengaytirish mumkin bo‘ladi.

Jahonda sohalar va mintaqalar kesimida paxta va ipak asosidagi to‘qimachilik materiallarini kimyoviy pardoqlashda zamonaviy texnika yutuqlarini samarali qo‘llashni ta‘minlaydigan innovatsion texnika va texnologiyalarni yaratish, mavjudlarini modernizatsiya qilishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda, jumladan, paxta, ipak asosidagi to‘qimachilik materiallarini kimyoviy pardoqlash, samarali bo‘yash va bir xil rang intensivligiga erishishni ta‘minlash usullarini yaratish bo‘yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Bu borada turli nisbatdagi paxta-ipak yigirilgan iplarni pardoqlashga tayyorlashning optimal texnologik rejimini aniqlash, bo‘yovchi moddadan samarali foydalanish texnologiyasini ishlab chiqish va mavjud texnologiyalarni takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Respublikamizda ilg‘or texnologiyalarni joriy etish va to‘qimachilik mahsulotlarining jahon bozoridagi o‘rnini mustahkamlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Ushbu sohada paxta-ipak aralash tolali mahsulotlarni yuqori texnologik usullarda ishlab chiqarish bo‘yicha sezilarli natijalarga erishilgan. Bu esa sanoatning salohiyatga egaligini va xalqaro standartlarga javob beradigan paxta-ipak aralash tolali mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun samarali texnologiyalarni joriy etish zaruriyati mavjudligini tasdiqlaydi. Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotining ushbu tarmog‘ida quyidagi ustuvor vazifalar belgilangan: «...respublikaning eksport salohiyatini yanada oshirish va 2026-yilga kelib respublikaning eksport hajmini 30 milliard AQSH dollariga yetkazish. Tayyor mahsulotlar va yarimtayyor mahsulotlar ulushini eksport tuzilmasida 3,3 barobar oshirish», «...to‘qimachilik sanoatida ipni qayta ishlash darajasini 100 foizga yetkazish, yuqori sifatli matolar talabini qondirish uchun 400 ming tonna sun‘iy va aralash tolalarni ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish...»². Ushbu vazifalarni amalga oshirishda import o‘rnini bosuvchi va eksportga yo‘naltirilgan sifat va raqobatbardoshlik talablariga javob beradigan yuqori sifatli paxta-ipak aralash tolali to‘qimachilik materiallarini ishlab chiqarishga qaratilgan tadqiqotlar muhim hisoblanadi.

¹ RISE Research & I Development — “Polycotton becomes household products” “Textile waste consisting of polyester-cotton blends (polycotton) ... amounts to close to one hundred million tonnes annually.” [RISE article]

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahsulotlarni eksport qilish tartib-taomillarini takomillashtirish va qo‘shilgan qiymatga ega tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025 yil 14 martdagi PF-47-sonli Farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot Strategiyasi to‘g‘risida»gi, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son «O‘zbekiston–2030 strategiyasi to‘g‘risida»gi, 2023-yil 2-sentyabrdagi PF-155-son «To‘qimachilik sanoatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi, 2024-yil 1-maydagi PF-71-son «To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi bo‘yicha tadqiqotlar fan va texnologiyalarni rivojlanishining II. «Energetika, energiya-resurstejamkorlik» ustuvor yo‘nalishlari doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi. Paxta-ipak asosidagi aralash tolali to‘qimachilik mato assortimentlarini kimyoviy pardoqlashning yangi samarali texnologiyalar yaratishga yo‘naltirilgan keng qamrovli ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta‘lim muassalari, jumladan, Wuhan Textile University (Xitoy), Hunan University of Science and Technology (Xitoy) kimyo muhandisligi, Chongqing University of Science and Technology (Xitoy), Busitema University, Makerere University, Kyambogo University, Ivanovo davlat kimyoviy texnologiya universiteti (Rossiya), Almata texnologiya universiteti (Qozog‘iston), Urganch davlat universiteti, O‘zbekiston tabiiy tolalar instituti (Marg‘ilon), Buxoro davlat universiteti (O‘zbekiston)da keng qamrovli ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Paxta-ipak asosidagi to‘qimachilik materiallarini kimyoviy pardoqlash texnologiyalarini yaratish va ulardan samarali foydalanishga oid jahonda olib borilgan tadqiqotlar natijasida qator quyidagi natijalar olingan: Rangni tartibga solish va nano o‘lchamli polimerni moslashtirish paxta-poliester aralashtirilgan matolar uchun pigment gibril lateks ko‘pikli bo‘yash (Zhejiang Sci-Tech University, Hangzhou, China), Paxta-ipak matolarni suvda eruvchan bo‘yovchi modda bilan xitozan ishtirokida bo‘yashni jadallashtirish (Buxoro davlat universiteti), Paxta matosida assimilyatsiya qilishda Mader bo‘yog‘ining termal barqarorligi namunasi va nazariy tahlili (Deemed to be University, India), Sellyulozali matolarini faol bo‘yovchi moddalar bilan bo‘yash sifatiga tayyorlash usulining ta‘sirini o‘rganish (Ivanova davlat kimyo-texnologiya universiteti, Rossiya), To‘qimachilik yordamchi moddalarni tayyorlash va yuvish jarayonlari uchun tanlash muammolari, yorqin ranglashdan keyin paxta tolasining rang berish subkritik karbonat anhidrid va bug‘ aralashmalari bilan ko‘rsatkichilar tahlili (Soochow University, China), Geterosiklik monoazo aktiv bo‘yovchi moddalarning kolorimetrik tadqiqotlari va ularni paxta, ipak va jun tolalarida bo‘yashda qo‘llanilgan, Paxta va poliester aralash tolalardan tayyorlanilgan matolarga bo‘yash va gul bosish jarayonlarini zamonaviy tahlili (Toshkent davlat texnika universiteti), Paxta-ipak matolariga gul bosish texnologiyasini xitozan apis melliferadan foydalanish matolar olish usullari va texnologik reglamentlar ishlab chiqilgan.

Jahonda paxta ipak matolarini turli apretlar biosensorlar yordamida antibakterial, kolorimetrik, xitozan fermentlari yordamida bo'yash, matoning rang xususiyatlarini va paxta-ipak asosidagi aralash to'qimachilik materiallarning zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqot usullari qo'llanilib IQ va UV spektroskopiya, skanerlash elektron mikroskopiya (SEM) hamda bo'yalgan matolarning fizik-mexanik xususiyatlari va rang sifati ko'rsatkichlarini aniqlashning standart usullari ustida tajriba ishlari olib borilmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Hozirgi vaqtda ilmiy tadqiqotlarning tahlili natijasi shuni ko'rsatadiki, paxta ipak matolarini alohida vannada kimyoviy tayyorlash va bo'yash jarayonlarini o'rganish bo'yicha ilmiy ishlar olib borilgan. Paxta-ipak asosidagi aralash tolali to'qimachilik materiallarini bir vannada matoning fizik-mexanik, eksplutatsion xossalarini ta'minlaydigan kimyoviy tayyorlash va bo'yash jarayonlari muhimligi quyidagi xorijlik olimlarning ilmiy ishlarida aks ettirilgan: M.C.Caggiani, T.Forleo, D.A.Khzzratova, F.M. Nuritdinova, Young-Hee Lee, Eun-Kyung Hwang, R.Saraswathi, PN.Krishnan va boshqalar.

Respublikamiz olimlari X.A.Alimova, M.M.Muqimov M.Z.Abdukarimova, D.B.Xudayberdiyeva, G.A.Ixtiyarova, M.X.Mirzahmedova N.M.Musayev, B.F.Mirusmanov, F.Abduraximova, Sh.R.Ikramov, A.M.Daminov, G.A.Yusupxodjayeva va boshqalarning ilmiy-tadqiqot ishlari paxta-ipak asosidagi aralash tolali to'qimachilik matolarini yaratish va takomillashtirishga bag'ishlangan va ijobiy natijalar olingan.

Yuqorida bayon qilinganlar bilan bir qatorda paxta-ipak asosidagi gazlamalarni samarali, intensiv kimyoviy pardoqlash texnologiyalarini yaratish, ularning fizik-mexanik va ekspluatatsiya xossalarini saqlagan holda pardoqlash texnologiyasini yaratishga tegishli ilmiy-tadqiqotlar yetarli darajada bajarilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti ILM-№ 202107012 innovatsion loyihasi doirasida «Paxta va ipak iplaridan trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyasini yaratish («Porloq» seleksion paxta tolasi asosida «Chust» milliy brendini yaratish) loyiha mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi paxta-ipak aralash tolali to'qimachilik materiallarining yuqori sifat ko'rsatkichlarini ta'minlovchi yangi kimyoviy pardoqlash texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

paxta-tabiiy ipak tolalari asosidagi to'qimachilik materiallarini kimyoviy pardoqlash texnologiyalari: mavjud muammolar va ularning innovatsion yechimlarini analitik tahlil qilish;

paxta-ipak aralash tolali to'qimachilik materiallari uchun xomashyo tanlashni nazariy asoslash;

to'liq faktorli tajriba asosida paxta-ipak yigirilgan iplarini tayyorlash jarayonini optimal texnologik tarkibini ishlab chiqish;

faol bo'yovchi moddalar bilan turli nisbatdagi paxta-ipak asosidagi yigirilgan iplarni bo'yash jarayoniga turli bifunksional moddalar bilan intensivlash;

ipak-paxta asosidagi gazlamalarni samarali bo'yash texnologiyasini ishlab chiqish;

ipak-paxta asosidagi gazlamalarga gul bosish tarkibidagi intensivator ta'sir mexanizmini tadqiq etish;

ipak-paxta aralash gazlamalarni kimyoviy pardoqlash texnologiyasini ishlab chiqarishga tatbiq etish va iqtisodiy samaradorlikni asoslash.

Tadqiqotning obyekti rayonlashtirilgan C-6524 paxta navli yigirilgan ip, naslchilik mahalliy Porloq-1, Porloq-2 paxta navlari asosidagi yigirilgan iplar, paxta-ipak aralash tolali yigirilgan iplar (Paxta-ipak = 90:10; 80:20; 70:30 nisbatda), paxta-ipak asosidagi gazlamalar «Atlas» 34:66, «Polotno» 26:74, Porloq-2 va C-6524 100 % paxta asosidagi gazlamalar tanlab olindi.

Tadqiqotning predmeti paxta-ipak asosidagi aralash tolali to'qimachilik materiallarini kimyoviy pardoqlash bosqichlarining optimal parametrlarini aniqlash, mahalliy reagentlar asosida jarayonlarni jadallashtirish mexanizmini yoritish orqali mahsulotlar assortimentini kengaytirish va ekspluatatsion xususiyatlarini yaxshilash.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida spektrokolorimetrik, IK-spektroskopik usullar, skanerlash elektron mikroskopiya va rentgen nurlanishini tahlil qilish, shuningdek, fizik-mexanik, fizik-kimyoviy, to'liq faktorli tajriba, matematik tahlil, strukturaviy sorbsion usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

paxtaning Porloq-1, Porloq-2, C-6524 navlari va ipak tarandisini rentgenostrukturaviy, sorbsion, skanerlovchi elektron mikroskopik tahlililari asosida, aralash tolali yigirilgan iplarning xossalarini kompleks baholash orqali eng yuqori fizik-mexanik va ekspluatatsion xossalarini beruvchi paxta-ipak yigirilgan iplar uchun xomashyo va tolali tarkib nisbati aniqlangan;

paxta-ipak asosidagi to'qimachilik yigirilgan iplar sifatiga pardoqlashga tayyorlashning asosiy kimyoviy reagentlarning ta'siri tadqiq etilgan, to'liq faktorli tajriba asosida pardoqlashga tayyorlashning asosiy omili ipak tarandisining turli ulushida paxta-ipak yigirilgan iplarini pardoqlashga tayyorlashning optimal texnologik rejimi aniqlangan;

skanerlovchi elektron mikroskop, sorbsiya izotermalari, spektroskopik tahlillar asosida, tola geometrik o'lchamlari, yigirilgan ip hajmiy parametrlari sorblangan, fiksatsiya bo'lgan bo'yovchi modda miqdorini aniqlash asosida yangi kimyoviy pardoqlash texnologiyasi ishlab chiqilgan;

paxta-ipak yigirilgan iplarning rang sifatiga ta'sir etuvchi omillar ipak ipining ulushi, bo'yash eritmasidagi elektrolit, soda va bo'yash haroratini tolada bog'langan bo'yovchi modda miqdori, rang intensivligi orasidagi fazoviy bog'liqlik, tajribalarni ko'p faktorli matematik rejalashtirish natijalari asosida turli tarkibli yigirilgan iplarni yuqori rang sifatini ta'minlovchi bo'yash tarkibi va optimal texnologik omillari aniqlangan;

turli tarkibli ipak-paxta aralash tolali gazlamalarni uzlukli va yarimuzluksiz pardoqlashga tayyorlash jarayonida kuchsiz ishqoriy reagentga almashtirish, Beizol-Do fermenti miqdorini oshishi gazlamaning tindirish vaqtini kamayishini va yuqori sorbsion hajmiy xossalarni oshishini ta'minlashi aniqlangan;

turli tolali tarkibga ega Atlas (ipak-paxta=34:66) va Polotno (ipak-paxta=26:74) o‘rilishli gazlamalarga gul bosishda rang sifat ko‘rsatkichlarini, bo‘yovchi moddadan foydalanish darajasini oshishini ta‘minlovchi bentonit ishtirokidagi tarkibni IK-spektral, termogravimetrik tahlillar asosida, tola qurilmasini bo‘shashtirib, ion holatdagi alyuminiy va kremniy oksidlari orqali bo‘yovchi modda tola bilan qo‘shimcha bog‘lanishi jarayoni mexanizmi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

paxtaning Porloq-1, Porloq-2, C-6524 navlarining mikroneyr va geometrik ko‘rsatkichlari, fizik-mexanik xossalari tahlillari asosida, yigirilgan iplarning xossalarini kompleks baholash orqali paxta-ipak aralash tolali iplar uchun eng yuqori fizik-mexanik va ekspluatatsion xususiyatlarini beruvchi paxta tolasi navi tanlangan va tolali tarkib ishlab chiqilgan;

paxta-ipak asosidagi to‘qimachilik yigirilgan iplar sifatiga pardoqlashga tayyorlashning asosiy kimyoviy reagentlari ta‘siri tadqiq etilgan va to‘liq faktorli tajriba asosida turli nisbatdagi paxta-ipak yigirilgan iplar uchun pardoqlashga tayyorlashning optimal texnologik rejimlari ishlab chiqilgan;

paxta-ipak aralash tolali yigirilgan iplarni turli tabiatli intensivatorlar – bifunksional moddalar, Beizol-Do fermenti va bentonit ishtirokida samarali bo‘yash texnologik rejimlari ishlab chiqilgan;

ipak-paxta yigirilgan iplarning rang sifatiga, tolagaga bog‘langan bo‘yovchi modda miqdoriga ta‘sir etuvchi omillar – ipak ipning ulushi, bo‘yash eritmasidagi elektrolit, soda va bo‘yash harorati orasidagi fazoviy bog‘liqlik, tajribalarni ko‘p faktorli matematik rejalashtirish asosida yuqori rang sifatli bo‘yash tarkibi va texnologik rejimi ishlab chiqilgan;

paxta-ipak aralash tolali gazlamalarni pardoqlashga tayyorlashning uzlukli va yarimuzluksiz usulda tayyorlash eritmasidagi asosiy komponentlar konsentratsiyasining tadqiqi asosida me‘yoriy sifat ko‘rsatkichlarini ta‘minlovchi tarkib va texnologik rejim korxonada sharoitida sinovdan o‘tib, tatbiq etishga taklif etilgan;

turli tolali tarkibga ega Atlas (ipak-paxta=34:66) va Polotno (ipak-paxta=26:74) o‘rilishli gazlamalarga gul bosishda rang sifat ko‘rsatkichlariga va bo‘yovchi moddadan foydalanish darajasini gul bosish bo‘yog‘ida intensivator-bentonit ishtirokida oshirishni, undagi mochevina miqdorini kamaytirishni va yuqori rang sifat ko‘rsatkichlarini ta‘minlovchi tarkib ishlab chiqilgan;

paxta-ipak asosidagi aralash tolali to‘qimachilik materiallarini pardoqlashga tayyorlash tarkib va texnologik rejimni, mahalliy reagent asosidagi, bo‘yash jarayonini intensivator tarkibi va taklif etilgan texnologik rejimlar mos ravishda ishqor miqdorining o‘n barobar kamaytirish hisobiga 2 mln 700 ming so‘m, kuchli o‘yuvchi ishqor NaOH o‘rniga nisbatan yumshoq ishqor Na₂CO₃ hamda Beizol-Do fermentini qo‘llash hisobiga 2 mln 480 ming so‘m, bo‘yovchi modda va suv sarfi bo‘yicha 4 mln 260 ming 645 so‘m miqdorida, umumiy 1 tonna to‘qimachilik materiallari uchun 9 mln 440 ming 645 so‘m iqtisodiy samaradorlik kutiladi. Shu bilan birga mahsulot sifati oshishi, ekologik muammo va suv sarfi kamayishi ta‘minlanadi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi HVI (HVI 1000, USTER, Shveysariya) Standart metodologiyaga muvofiq, tolalarning kompleks ko'rsatkichlarini baholash orqali o'rganilayotgan obyektlarning tiplari aniqlangan. Olingan natijalarning ishonchliligi analitik, fizik-kimyoviy usullar – IQ-spektroskopiya, skanerli elektron mikroskopiya, rentgen nurlari difraksion tahlil usullaridan foydalangan holda eksperimental tadqiqotlar olib borish va tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga tatbiq etilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati paxta-ipak yigirilgan iplarni rentgenostrukturaviy, sorbsion, skanerlovchi elektron mikroskopik tahlillar asosida, iplarning xossalarini kompleks baholash orqali tolali tarkib nisbati nazariy asoslanganligi, to'liq faktorli tajriba asosida pardoziqlashga tayyorlashning asosiy omili ipak tarandisining ulushi paxta-ipak pardoziqlashga tayyorlashning optimal texnologik rejimi ishlab chiqilganligi, tola geometrik o'lchamlari va yigirilgan ip hajmiy parametrlarini inobatga olgan holda bo'yash jarayonini zaruriy intensivlash mexanizmi nazariy asoslanganligi, matematik rejalashtirish natijalari asosida turli tarkibli yigirilgan iplarni yuqori rang sifatini ta'minlovchi bo'yash tarkibi va optimal texnologik omillari aniqlanligi, turli tolali tarkibga ega Atlas, Polotno o'rilishli gazlamalarga gul bosishda rang sifat ko'rsatkichlari mexanizmi nazariy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati paxtaning Porloq-1, Porloq-2, S-6524 navlari va ipak tarandisini tahlillari asosida, aralash tolali yigirilgan iplarning xossalarini kompleks baholash orqali eng yuqori fizik-mexanik va ekspluatatsion xossalarini beruvchi paxta-ipak yigirilgan iplar uchun xomashyo va tolali tarkib ishlab chiqilganligi, paxta-ipak asosidagi to'qimachilik yigirilgan iplar sifatiga pardoziqlashga tayyorlashning to'liq faktorli tajriba asosida optimal texnologik rejimi ishlab chiqilganligi, turli tarkibli yigirilgan iplarni bo'yash jarayonini bifunksional moddalar, ferment va bentonit ishtirokida jadallashtirishda bo'yovchi moddadan foydalanish darajasini oshishini ta'minlovchi, samarali texnologik rejimlari ishlab chiqilganligi, kimyoviy reagentlar, suv energetik resurslarni tejashga qaratilgan, mahalliy reagentlarni qo'llagan holda, ipak-paxta aralash tolali gazlamalarga yuqori sifatli ta'minlovchi pardoziqlashga tayyorlash, bo'yash, gul bosish jarayonlarini samarali texnologiyalarini ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Paxta-ipak asosidagi aralash tolali to'qimachilik materiallarining kimyoviy pardoziqlash texnologiyasini ishlab chiqarish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Porloq-2 va paxta-ipak aralash kalava ip ishlab chiqarish va ularni baholashda yigirilgan iplar «Medetex» MCHJ korxonasi sharoitida sinovdan o'tkazildi va ishlab chiqarishga joriy etildi («O'zto'qimachilik sanoat» uyushmasining 03.11.2025-yildagi №02/06-2606 ma'lumotnomasi). Natijada paxta tolasining seleksiya naviga nisbatan Porloq-2 va ular asosidagi aralash tolali paxta-ipak yigirilgan iplarining fizik-mexanik ko'rsatkichlariga erishilgan.

Porloq-2 seleksion navli paxta-ipak asosidagi yigirilgan iplarni bo'yashga tayyorlash va bo'yashning texnologik rejimi «FBTEKS» MCHJ korxonasida amaliyotga joriy etilgan («O'zto'qimachilik sanoat» uyushmasining 03.11.2025-yildagi №02/06-2606 ma'lumotnomasi). Natijada paxta-ipak asosidagi

yigirilgan ipning strukturaviy xususiyatlarini hisobga olgan holda yuqori oqlik, kapilyarlik fizik-mexanik xossalari ta'minlandi. Bo'yash jarayonini intensivlash va faol bo'yovchi moddaning bentonit bilan qo'shimcha fiksatsiyasi hisobiga bo'yovchi modda sarfini va yuvish sonining qisqarishiga erishildi, bu pardoqlash korxonalarida oqova suv ifloslanishining kamayishiga olib kelgan. Paxta-ipak yigirilgan ipni bo'yash jarayonini intensivlash uchun bentonitning qo'llanilishi bo'yovchi moddadan foydalanish darajasini Porloq-2 asosidagi aralash ip seleksiya navida 21,1 % gacha oshirishga erishilgan;

Paxta-ipak asosidagi «Atlas»- 34:66 va «Polotno»- 26:74 nisbatdagi aralash gazlamalarini oqartirish, bo'yash texnologik rejimlari «Urganch Baxmal» MCHJ korxonasida joriy etilgan («O'zto'qimachilik sanoat» uyushmasining 03.11.2025-yildagi №02/06-2606 ma'lumotnomasi). Natijada bo'yash vannasidagi mochevinani bentonitga almashtirish bo'yovchi moddaning tolaga chuqur kirib borishiga yordam beradi va rang intensivligini oshiradi. Intensifikatorni qo'llash bo'yovchi modda sarfini o'rtacha 1,5 barobarga, yuvish jarayoni sonini kamayishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 14 ta xalqaro va 16 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda qilingan ma'ruzalarda muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 13 ta ilmiy maqola chop etilgan. Shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta, ulardan 5 tasi xorijiy jurnallarda e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, oltita bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 205 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, uning obyekti hamda predmetlari tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Paxta-tabiiy ipak tolalari asosidagi to'qimachilik materiallarini kimyoviy pardoqlash texnologiyalari bo'yicha mavjud muammolar va ularning innovatsion yechimlarini analitik tahlili**» deb nomlangan birinchi bobida paxta-tabiiy ipak tolalari asosidagi to'qimachilik materiallarini tayyorlash, samarali bo'yash va gul bosishning jadal texnologiyalari bo'yicha mavjud muammolar va ularni innovatsion yechimlari analitik tahlillari o'ziga xos xususiyatlari bilan asoslangan. Bu tolali xomashyoga yuqori talab paxta-

ipak asosidagi to‘qimachilik materiallarining kompleks sifat ko‘rsatkichlari, yuqori gigiyenik va antiallergenlik xususiyatlari bilan tavsiflangan.

Dissertatsiyaning «**Paxta-tabiiy ipak tolali materiallarni kimyoviy pardoqlash va natijalarni tahlil qilish uslublari**» deb nomlangan ikkinchi bobida paxta-ipak asosidagi to‘qimachilik materiallarini sifatini baholash, kimyoviy tayyorlash, bo‘yash va gul bosish jarayonlarida tanlangan obyektlarga kimyoviy tarkiblarni mosini tanlashda fizik-kimyoviy va mexanik xossalarini aniqlashdagi hamda ularning strukturasi tadqiq etishdagi skanerli elektron mikroskopiya (SEM), infraqizil (IQ) spektroskopiya, differensial termik tahlil (DTT) usullarining tasnifi keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Paxta-ipak aralash tolali to‘qimachilik materiallari uchun xomashyo tanlashni nazariy asoslash**» deb nomlangan uchinchi bobida paxta-ipak to‘qimachilik mahsulotlari assortimentini kengaytirishda, ularni o‘ziga xos sifat xususiyatlarini saqlagan holda va ekspluatatsion jarayonidagi muammolarni hal qilishda tolali xomashyoni tanlash hamda komponentlar nisbatini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar natijalari keltirilgan.

Paxta-ipak aralash tolali to‘qimachilik materiallarini ishlab chiqarish uchun respublikamizda keng miqyosda yetishtiriladigan C-6524 navli rayonlashtirilgan paxta tolasi, ipak tarandisi va paxta tolasining yangi Porloq-1 (P-1), Porloq-2 (P-2) navlari tanlab olindi. Tola hosil qiluvchi polimerlarning kimyoviy strukturaviy tuzilishi nafaqat olingan mahsulot sifatiga, balki kimyoviy pardoqlashning texnologik jarayonlar tizimini shakllantirishga ham ta’sir qiladi.

Respublika olimlari tomonidan yetishtirilgan paxta tolasining P-1, P-2 naslchilik navlari tezpishar, fizik-mexanik va organoleptik ko‘rsatkichlari ipak tarandisi bilan aralash tolali yigirilgan iplarni tuzilishining asosiy qonuniyatlariga mos kelishi aniqlandi.


1-jadval

Paxta va ipak tolalarining xarakteristikalarini

№	Ko‘rsatkichlarning nomlanishi	Tekshiruvlar natijalari			
		C-6524	P-1	P-2	Ipak tarandisi
1.	Chiziqli zichligi, tex	0,247	0,242	0,209	0,180
2.	Shtapel uzunligi, mm	32,5–33,2	34,3–35,2	35,4–36,3	35,4–37,0
3.	Uzilishdagi kuch, cN	4,4	4,5	4,5	4,8
4.	Micronaire (Mic)	4,6	4,5	4,2	–
5.	Uzilishdagi uzayishi, %	6,8	7,4	6,3	15,0
6.	α -sellyuloza	98,3	98,7	98,6	–
7.	Polimerlanish darajasi	2700–2900	3200–3300	3200–3300	3000–5000

Tadqiq etilgan paxta navlari tarkibidagi α -sellyuloza miqdorida katta farq yo‘q, lekin polimerlanish darajasidagi farqlar o‘rtacha 400 dan yuqori ko‘rsatkichga egaligi rayonlashgan C-6524 navga nisbatan mustahkamlik ko‘rsatkichi yuqoriligini ta’minlaydi (1-jadval).

Kimyoviy tarkibining o‘ziga xos xususiyatlari, aralash tolali yigirilgan ip ishlab chiqarish uchun tanlangan tolali xomashyoning tuzilishi, sorbsion xossalari o‘rganildi va xomashyoning tahlili o‘tkazildi.



1-rasm. Tadqiqot obyektlarining suv bug‘i sorbsiyasi izoterma egri chiziq-lari ($25 \pm 0,1^{\circ}\text{C}$): 1–C-6524 paxta tolasi; 2–yangi seleksiya navi Porloq-1; 3–Porloq-2; 4–ipak tarandisi


Suv bug‘ining sorbsiya izotermasi natijalariga ko‘ra, xomashyoning sirt va hajmiy xossalari hisoblandi (2-jadval).

2-jadval

Tolali xomashyoning sirt va hajmiy xossalari



Sifat ko‘rsatkichlari	Paxta tolasi navi			Ipak tarandisi
	Porloq-1	Porloq-2	C-6524	
Monoqatlam hajm, X_m , g/g	0,0219	0,0118	0,0105	0,01197
Solishtirma yuza, S_{sm} , m^2/g	76,98	41,52	36,75	42,08
G‘ovaklarning umumiy hajmi, W_0 , sm^3/g	0,072	0,058	0,048	0,055
Kapillyarlar radiusi, R_k , Å	28,18	18,71	26,12	26,014
Kristallanish darajasi, %	84	86	84	76

Paxtaning Porloq-1, Porloq-2 va C-6524 navlari rentgenostrukturaviy, sorbsion, skanerlovchi elektron mikroskopik tahlillari asosida paxta-ipak aralash tolali yigirilgan iplar uchun yuqori moslikka ega bo‘lgan Porloq-2 va ipak tarandisi xomashyosi tanlandi.



2-rasm. Paxta tolasi namunalari-ning SEM fotosurat-lari: a– Porloq-1; b– Porloq-2; v– C-6524

Tolali tarkibning fizik-mexanik ko‘rsatkichlari, tayyorlash va bo‘yash jarayonlarining texnologik ketma-ketligi va reagentlar ta‘sirini o‘rganish maqsadida quyidagi nisbatdagi aralash yigirilgan iplar tajriba namunalari ilmiy laboratoriyada ishlab chiqildi: 1) P- I=90:10; 2) 80:20; 3) 70:30; 4) 60:40.




3-rasm. Porloq-2 navi va u asosidagi turli nisbatdagi yigirilgan paxta-ipak iplar sifat ko'rsatkichlarini kompleks baholash: I) Porloq-2 yigirilgan ipi; II) Paxta-ipak =90:10; III) Paxta-ipak =80:20; IV) Paxta-ipak =70:30; V) Paxta-ipak =60:40; VI) Ipak yigirilgan ip.

Yuqori fizik-mexanik va ekspluatatsion xossalariga ega bo'lgan paxta-ipak aralashirilgan iplardagi tolalar nisbatini aniqlash uchun turli tarkibdagi yigirilgan iplar sifati kompleks baholandi (3-rasm).

Aralash tolali yigirilgan iplar sifatini kompleks baholashda namunalarning chiziqli zichligi, variatsiya koeffitsiyenti, uzilishdagi kuch, uzilishdagi cho'zilish, buramlar soni, burama koeffitsiyenti sifat ko'rsatkichlari asosida paxta-ipak=80:20 nisbatdagi yigirilgan ipning diagrammasi yuza maydoni 10689,3 mm² – eng katta konturga ega bo'lib, mustahkamlik ko'rsatkichi o'rtacha 20 ÷ 24 % ga ortishini ta'minlovchi nisbat aniqlandi.

To'qimachilik materiallarini bo'yash va gul bosish uchun tayyorlash ularni kimyoviy pardoqlashning dastlabki bosqichi bo'lib, keyingi jarayonlarning borishiga, pardoqlash sifatiga va ularning ekspluatatsion xususiyatlari saqlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Qaynatish jarayonida ishqorni destruktiv ta'sirini kamaytirish maqsadida ishqoriy vosita sifatida nisbatan kuchsiz ishqoriy reagent tanlab olindi va paxta tolasidan chiqindilarni to'liq tozalashni ta'minlash uchun fermentdan foydalanildi.

Tayyorgarlik jarayoni (g/l): Na₂CO₃ – 0 – 6, OP – 10 – 2, H₂O₂ – 0 – 7, Na₂SiO₃ - 0÷50, Beizol-Do – 0 – 6 miqdorlarida o'rganildi, tarkib bo'yicha quyidagi texnologik ketma-ketlikda amalga oshirildi:



4-rasm. Kimyoviy tayyorlash texnologik ketma-ketligi

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, 1-texnologik ketma-ketlikda paxta-ipak to'qimachilik yigirilgan iplarining fizik-mexanik xossalari, yuqori kapillyarligi va oqlik darajasi saqlanishini ta'minlaydi. Xona haroratida Beizol-Do – 2 g/l fermenti faol harakat qilib, yigirilgan ipning strukturasi bo'shashtiradi va shu bilan


sellyuloza yoʻldoshlarini destruksiya jarayonini tezlashtirib, natijada yuqori kapillyarlikka erishildi.

3-jadval

Tayyorlash jarayonining harorat-vaqt rejimining Porloq-2 asosidagi aralash tolali yigirilgan ipning sifat koʻrsatkichlariga taʼsiri


№	Tolali komponent nisbati / Texnologiya turi	Kapillyarlik, mm/ch		Oqlik darajasi, %		Nisbiy pishiqlik, N/teks		Uzilishdagi choʻzilish, %	
		1	2	1	2	1	2	1	2
1	P- I=100:0	142	132	85,4	88,5	11,5	10,5	5,06	6,9
2	P- I=0:100	135	135	78,7	80,0	13,8	13,0	7,81	8,8
3	P- I=90:10	141	135	85,4	88,3	12,4	9,1	5,42	3,4
4	P- I=80:20	140	131	85,7	87,2	13,1	10,1	6,92	5,6
5	P- I=70:30	138	134	84,3	86,2	14,2	10,8	7,04	6,9

Aralash tolali yigirilgan iplarni qaynatish uchun texnologik jarayonlar quyidagi tanlangan ketma-ketlik asosida amalga oshirildi:



5-rasm. Porloq-2 aralash tolali yigirilgan ipni tayyorlash jarayoni taklif etilgan texnologik ketma-ketlik

Birinchi bosqichda qaynatish eritmasining asosiy tarkibi – ishqoriy agent, peroksid vodorod va Beizol-Do konsentratsiyasining aralash tolali yigirilgan iplarning fizik-mexanik va struktura-sorbsion xususiyatlariga taʼsiri oʻrganildi.



6-rasm. Tayyorlash eritmasidagi Na₂CO₃ Beizol-Do konsentratsiyasini aralash tolali yigirilgan iplarning (A) mustahkamlik, (B) kapillyarlikka taʼsiri:

- 1) Porloq-2 paxta navidan olingan yigirilgan ip; 2) yigirilgan ipak ipi;
- 3) P- I=90:10 nisbatdagi yigirilgan; 4) 80:20; 5) 70:30.

Paxta-ipak asosidagi toʻqimachilik yigirilgan iplari sifatiga pardoqlashga tayyorlashning asosiy kimyoviy reagentlarning taʼsirini tadqiq etish orqali ipak tashkil etuvchisini destruksiyasining oldini oluvchi, oqlik darajasi 85,7 % va

kapillyarligi 140 mm bo'lgan yigirilgan iplarni pardoqlashga tayyorlash tarkibi va texnologik rejimi ishlab chiqildi.

Paxta-ipak yigirilgan iplarining sifatiga reagentlar ta'siri «To'liq faktorli tajriba» asosida o'rganildi. Kimyoviy pardoqlashga tayyorlashning optimal texnologik rejimini aniqlash uchun tajriba o'tkazish rejasi tuzildi.

Asosiy ta'sir etuvchi omillar sifatida aralash iplar tarkibida ipak ipning ulushi, qaynatish, oqartirish vannasi tarkibidagi reaktivlar miqdori: g/l, (H₂O₂ 2-6, Na₂SiO₃ 10-50, Na₂CO₃ 2-8) tanlangan. Chiqish parametri sifatida qaynatilgan va oqartirilgan ipning oqlik darajasi (%), kapillyarligi (mm/soat), uzilish kuchi (cN) olingan.

Regressiya tenglamasi olindi: y_1 – oqlik darajasi; y_2 – kapillyarlik; y_3 – uzilishdagi kuch.

$$y_1 := 85,7750 - 3,0262 X_1 + 0,1387 X_2 - 0,0568 X_3 + 0,3093 X_4 - 0,2700 X_1 X_2 - 0,1693 X_1 X_3 - 0,0056 X_2 X_3 + 0,2706 X_1 X_4 + 0,0818 X_2 X_4 - 0,1812 X_3 X_4 + 0,0868 X_1 X_2 X_3 + 0,0881 X_1 X_2 X_4 + 0,1487 X_1 X_3 X_4 + 0,0962 X_2 X_3 X_4 + 0,0437 X_1 X_2 X_3 X_4$$

Hisoblar natijasida olingan nisbiy tafovutlar 4-jadvalning oxirgi ustunida keltirilgan bo'lib ularning eng katta qiymati 1,4 % dan oshmaydi. Bunday natija amaldagi talabga javob beradi. Bundan tashqari, chiziqli bog'lanishning adekvatligi qoldiq dispersiyasi ushbu formula yordamida aniqlab

$$S_{oct}^2 = \frac{\sum_{n=1}^N (\hat{y}_u - \bar{y}_u)^2}{N - k - 1} \quad (1) \text{ uning statistikasini} \quad F = \frac{S_{oct}^2}{S_y^2} = 0.439 \quad (2)$$

Fisher kriteriyasi $F_{\alpha, N-k-1, N(m-1)}$ $N - k - 1 = 16 - 4 - 1 = 11$, $N(m - 1) = 16(2 - 1) = 16$
 $F_{0.5, 11, 16} = 2.48$ bilan solishtirish kerak bo'ladi. $F < F_{0.5, 11, 16} = 2.48$ sharti bajarilganligi sababli chiziqli model bu yerda inkor etilmaydi.

4-jadval

Kiruvchi va chiquvchi faktorlarning qiymati $y = 82,52$

$x_2 = 1$	x_3	10	14	18	22	26	30	34	38	42	46	50
	x_1	29,1	29,1	29,0	29,0	28,9	28,9	29,8	29,8	28,7	28,6	28,6
$x_2 = 2.6$	x_1	29,7	29,6	29,6	29,5	29,5	29,4	29,4	29,3	29,2	29,2	29,1
$x_2 = 3$	x_1	29,8	29,82	29,77	29,71	29,65	29,59	29,54	29,49	29,43	29,37	29,32
$x_2 = 3.4$	x_1				30	29,93	29,87	29,82	29,76	29,71	29,65	29,60

To'liq faktorli tajriba asosida turli tarkibli paxta-ipak yigirilgan iplarlar uchun pardoqlashga tayyorlashning optimal texnologik rejimlari ishlab chiqilgan.

Dissertatsiyaning «Paxta-ipak asosidagi yigirilgan iplarni kimyoviy pardoqlash texnologiyasini ishlab chiqish» deb nomlangan to'rtinchi bobi paxta-ipak aralash tolali yigirilgan iplarning tolalar nisbatini, tolali komponentlarda bir xil rang tusini hosil qilish, bo'yovchi moddani foydalanish darajasiga ta'sir etuvchi

omillarni aniqlash va bo'yash texnologik rejimini ishlab chiqishga bag'ishlangan. Aralash tolali yigirilgan ipning ikki komponentda bir xil rang intensivligini ta'minlash uchun turli funksional guruhlari bo'lgan bo'yovchi moddalar markalari orasida bir xil bo'yash usulida paxta va ipak uchun taxminan bir xil moyillikka ega bo'lgan 12 turdagi bo'yovchi modda tanlovi o'tkazildi. Natijada bir xil rang tusini hosil qiluvchi faol bo'yovchi moddalar tanlab olinib, quyidagi texnologik rejimda bo'yovchi modda konsentratsiyasini rang sifatiga ta'siri tadqiq qilindi. Bo'yash vannasi moduli 50, vannada bo'yovchi moddaning miqdori yigirilgan ip massasiga nisbatan 1–5 %; Na₂CO₃ 2-6 g/l; NaCl-20 g/l .

5-jadval

Aralash tolali yigirilgan ipalarni bo'yovchi modda konsentratsiyasi tahlili

BM kons. %	BFD %	K/S	R, %
1	42 / 44 / 45 / 48	7,0 / 7,5 / 7,5 / 8	0,2 / 0,6 / 0,1 / 0,6
2	43 / 52 / 53 / 55	12,0 / 9,5 / 10 / 11	0,4 / 0,3 / 0,2 / 0,8
3	46 / 48 / 51 / 55	11,0 / 11,5 / 11 / 12,5	0,6 / 0,2 / 0,4 / 1,0
4	44 / 46 / 50 / 56	11,5 / 12 / 12 / 11,7	0,6 / 0,7 / 0,8 / 1,2
5	46 / 48 / 52 / 55	12,5 / 13 / 12,5 / 19	0,8 / 1,2 / 0,8 / 1,0

100% P-2 dan yigirilgan ip; / aralash yigirilgan ip P- I=90-10; / P- I= 80-20; P- I=70:30. 5,

Yigirilgan ip tarkibidagi ipak tolasining ortishi (10, 20 va 30 %) bilan tolada fiksatsiyalangan bo'yovchi modda miqdori 100 %, paxta tolasi namunasiga nisbatan mos ravishda 17,4, 19,0 va 22 % ga oshadi. Shu bilan birga, rang ravonligi 0,3–1,2 oralig'ida bo'lib, K/S o'rtacha $11,5 \pm 0,5$ ni tashkil qiladi.

Na₂CO₃ miqdorining 5 g/l dan oshishi gidroliz jarayoniga sabab bo'lib, bo'yovchi moddaning foydalanish darajasi kamaya boshlaydi. Yigirilgan ip tarkibida oqsil tolasining ko'payishi fiksatsiyalangan bo'yovchi modda miqdoriga sezilarli ta'sir ko'rsatib, 16,7 dan 19,5 % gacha oshadi.

«To'liq faktorli tajriba» usuli yordamida ta'sir etuvchi omillar: ipak ipining ulushi 0–30, bo'yash vannasi tarkibidagi reagentlar: g/l, Na₂CO₃, 3-7, NaCl 10-50, harorat 55–80 tanlab olindi. Chiquvchi parametrlar sifatida tolaga bog'langan bo'yovchi modda miqdori, rang intensivligi K/S, rang ravonligi tanlandi.

Yuqoridagi uslub asosida rang intensivligi K/S o'zgaruvchiga bog'liq regressiya tenglamasi olindi. $S=13.625$ $S_{\max} = 3,125$

$$\text{Statistika } G = \frac{S_{\max}}{S} = 0.22944, G_{\text{koxren}} = G_{0.5,1,16} = 0,46 \quad G < 0,46$$


$$\begin{aligned} \text{Regressiya tenglamasi } y = & -9,125 + 0,76875 X_1 + 0,2875 X_2 + 0,28125 X_3 + 0,075 X_4 - \\ & 0,05625 X_1 X_2 - 0,1125 X_1 X_3 - 0,6875 X_2 X_3 - 0,09375 X_1 X_4 - 0,1 X_2 X_4 + 0,01875 X_3 X_4 - \\ & 0,1 X_1 X_2 X_3 - 0,13125 X_1 X_2 X_4 - 0,625 X_1 X_3 X_4 + 0,00625 X_2 X_3 X_4 - 0,0875 X_1 X_2 X_3 X_4 \end{aligned}$$

Tolaga bog'langan bo'yovchi modda miqdorining (y foizda) umumiy regressiya

tenglamasi): $y = 80,81 + 2,00X_1 + 0,625X_2 + 0,687X_3 + 1,937X_4 + 0,312X_1X_2 + 0,125X_1X_3 + 0,375X_2X_3 + 0,375X_1X_4 + 0,375X_2X_4 + 0,187X_3X_4 + 0,437X_1X_2X_3 + 0,0625X_1X_2X_4 - 0,125X_1X_3X_4 + 0,187X_1X_2X_3X_4$

Rang ravonligi (y foizda) regressiya tenglamasi: $y = 0,23625 - 0,0125 X_1 + 0,001875 X_2 - 0,10625 X_3 - 0,06375 X_4 + 0,004375 X_1X_2 - 0,006875 X_1X_3 - 0,00125 X_2X_3 - 0,0125 X_1X_4 - 0,010625 X_2X_4 + 0,001875 X_3X_4 + 0,00125 X_1X_2X_3 - 0,008125 X_1X_2X_4 + 0,005625 X_1X_3X_4 - 0,00125 X_2X_3X_4 + 0,00125 X_1X_2X_3X_4$

Tolaga bog‘langan bo‘yovchi modda miqdorining ipak ip ulushi (X_1) va haroratning maksimumi va minimum (X_4) orasida soda va elektrolit qiymatlariga bog‘liqligi bu omillar tekisligidagi 7-rasmda keltirilgan.



7-rasm. Tolaga bog‘langan bo‘yovchi modda miqdori yigirilgan ipning ulushi, haroratning maksimum, minimumida ikki kiruvchi parametrlar soda va elektrolit qiymatlari tekisligida o‘zgarishi

Hamma variant va qismlarda soda, elektrolit va yigirilgan ipdagi ipak ulushining oshishi tolaga bog‘langan bo‘yovchi moddaning oshishga olib keladi, haroratning oshishi esa tolaga bog‘langan bo‘yovchi modda miqdorining kamayishiga sabab bo‘ladi.

An‘anaviy usulda faol bo‘yovchi moddalar (BM) bilan bo‘yash natijasida bo‘yovchi moddadan foydalanish darajasi 55–60 % ni tashkil etadi. Faol bo‘yovchi modda bilan bo‘yash jarayonida ikki fazalar orasida boradigan diffuzion jarayonlarini tezlatish imkonlarini izlash maqsadida tolaga sorblangan va fiksatsiya bo‘lgan bo‘yovchi moddaning uning yuzaviy-hajmiy xossalari orasidagi bog‘liqlik tadqiq etildi. Skanerlovchi elektron mikroskop, sorbsiya izotermalari va spektroskopik tahlillar asosida tola hamda yigirilgan ip diametrlari, yigirilgan ipdagi tolalar soni, tola sorblangan va fiksatsiya bo‘lgan bo‘yovchi moddalar miqdori aniqlandi.

Yigirilgan ip ko‘ndalang kesimi yuzasi (3.1), elementar tola yuzasi (3.2) va ipda tolalar egallagan yuza (3.3) quyidagi formulalar orqali hisoblandi:

$$C_K = \pi \frac{d^2}{4} \quad (3.1); \quad S_T = \pi \frac{d^2}{4} \quad (3.2) \quad \text{va} \quad S_K = K\pi \frac{d^2}{4} + C_b \quad (3.3)$$

6-jadval





Paxta-ipak aralash yigirilgan ip bo'yicha kesim yuzasi bo'yicha ko'rsatkichlar qiymatlari

Paxta navlari	Bog'langan BM egallagan hajmi*, %	Kesim yuzasi bo'shliq kesimi S_b m ²	Kesim yuzasi-dagi bo'shliq, %	Yigirilgan ipga sorblangan BM miqdori		Yigirilgan ipga bog'langan BM miqdori	
				g/kg	%	g/kg	%
Porloq-2	62÷75	0,010761	68,0	12,6	65,25	9,90	49,5
Porloq-2 - ipak (80-20)	61÷70	0,008479	62,9	13,0	75,0	10,38	65,0
C-6524	57÷68	0,011271	52,5	11,0	49,50	9,00	45,0
C-6524-ipak (80-20)	64÷72	0,013362	35,9	15,1	75,9	10,8	71,9
Ipak	67 ÷ 78	0,009132	77,5	16,4	82,0	13,0	78,30

* Bo'yovchi moddaning, yigirilgan ip yuzasidagi bo'shliqqa nisbatan egallagan hajmi % da.





Natijada tolali xomashyo navi, hajmiy xossalari va tabiatidan qat'i nazar yigirilgan ipning hajmdagi bo'shliqni 61 dan 78 % ni bog'langan bo'yovchi modda egallashi aniqlandi. Shu maqsadda bo'yashda keyingi bosqich tadqiqotlarida bo'yovchi moddaning foydalanish darajasini oshirish maqsadida, bo'yash jarayonida diffuzion jarayonni tezlatish va gidrolizlangan bo'yovchi moddani tola bilan kovalent bog'lanishini maksimal ta'minlash uchun, namunalarni bo'yash jarayonini BMFD, Beizol-Do fermenti yordamida jadallashtirish imkoniyatlari tadqiq etildi.

Dastlabki tadqiqotlar natijasi asosida glitserin, etilenglikol va EXG bifunksional moddalarning bo'yash sifatiga ijobiy natija bergan miqdori 3 g/l aniqlandi. Namunalar quyidagi tarkib yordamida bo'yaldi: Faol ko'k 21KN-G-2%, Na₂CO₃ -2 g/l; NaCl, -30 g/l Glitserin-3g/l; Etilenglikol -3 g/l; Etilenxlorgidrin -3 g/l, bo'yash davomiyligi - 60 daqiqa yuvish: 1) sovuq suvda - 10 daqiqa; 2) 70-80 °C - 5 daqiqa OP - 10 - 2 g/l, 3) qaynoq suvda 50-60 °C; 4) sovuq suvda - 5 daqiqa; 5) yuvish - 5 daqiqa.



Gidrolizlangan bo'yovchi modda va ko'p atomli spirtlar ishqoriy sharoitda oddiy efir bog'larini hosil qiliadi.

Faol bo'yovchi moddaning gidrolizlangan shaklidagi -OH guruhleri etilenglikolning kislotali xossasiga ega bo'lgan gidroksil guruhleri bilan sellyulozaning asos xossasiga ega bo'lgan -OH oddiy efir va ipakning -COOH guruhleri bilan murakkab efir bog'larini hosil qilib, BMFD tolalarga sorblangan bo'yovchi moddalarning ipak tolasiga kovalent bog'lanishi ta'minlanadi.



Aralash tolali yigirilgan iplarni bo'yash jarayonida muhitning vodrod ko'rsatkichi 10÷11 bo'lishi, BFMni paxta tolasi bilan oddiy va ipak tolasi bilan esa murakkab efir bog'lar hosil qilib, «paxta-ipak+BFM+bo'yovchi modda» tizimida gidrolizlangan bo'yovchi moddani bog'lash imkonini beradi.

Bo'yash jarayonini jadallashtirishda tabiiy katalizator sifatida fermentlarni qo'llash, BMFD 15 dan 19 % gacha, rang intensivligi esa 22 dan 36 % gacha oshishini ta'minladi.



Olingan natijalar asosida paxta-ipak yigirilingan ipni faol bo'yovchi modda bilan samarali bo'yash texnologiyasi ishlab chiqildi va bu texnologiyada yuvish 5 bosqichdan 3 bosqichga kamaytirildi.

Intensifikator sifatida qo'llanilgan «Navbahor» bentonitning umumiy formulasi quyidagicha bo'lib $(\text{Ca}_{0,5}\text{Na})_{0,7} (\text{Al}, \text{Mg}, \text{Fe})_4, (\text{SiAl})_8 \text{O}_{20} (\text{OH})_n \cdot \text{H}_2\text{O}$ u dispergator, adsorbent, emulgator, quyuqlashtiruvchi sifatida qo'llanib keladi va tarkibida o'zgaruvchan valentli metall elementlari bo'lishi kation almashinuv xossasini beradi.

Bentonit Porloq-2 nav asosidagi aralash yigirilgan ipning sifat ko'rsatkichlariga ta'siri quyidagi tarkib bo'yicha o'rganildi: bo'yovchi modda – 2 %, natriy karbonat – 3 g/l, natriy xlorid – 30 g/l, bentonit – 3 g/l. Bo'yash jarayonini jadallashtirish maqsadida qo'llanilgan bentonit paxta-ipak yigirilgan ipda BMFD 1,4 dan to 1,6 martagacha va mustahkamligi 5 dan 7 % gacha ortishini ta'minlaydi.

Bentonit suvda 0,18 mg-ekv/g miqdorida erigan bo'lib, uning tarkibidagi alyuminiyni 58 % miqdori musbat zaryadlangan faol gidroksil $[Al(OH)]^{+2}$ va $[Al(OH)_2]^+$ ionlarini hosil qiladi.

Bo'yovchi modda eritmasida bentonit yuqori dispersiyasini hosil qilib, tola qurilmasini bo'shashtiradi, uning tarkibidagi musbat zaryadlangan ionlar bo'yovchi modda anionlarini tolalarning ichiga kirib borishini ta'minlab, funksional guruhlar bilan reaksiyasini tezlashtiradi. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, bentonitning bo'yovchi modda eritmasiga kiritilishi tolaning mikrostrukturasida sezilarli o'zgarishlarga olib kelmaydi, chunki tolaning kristallik darajasi sezilarli darajada o'zgarmaydi.



Dissertatsiyaning «Paxta-ipak asosidagi to'qimachilik matolarini samarali bo'yash texnologiyasini ishlab chiqish» nomli V bobida ipak-paxta asosidagi gazlamalarni uzlukli, yarimuzluksiz usulda pardoqlashga tayyorlashda gazlamalarning sifat ko'rsatkichlariga Na_2CO_3 , H_2O_2 , Beizol-Do fermenti, Na_2SiO_3 konsentratsiyalari ta'sirini, tindirish vaqti davomiyligini hamda uzlukli usulda bo'yash va gul bosishni samarali texnologiyasini ishlab chiqarish bo'yicha olingan natijalar keltirilgan. Ipak-paxta asosidagi to'qima matolariga gul bosishning samarali tarkibi ishlab chiqilgan hamda ipak-paxta gazlamalarga gul bosish tarkibidagi intensivator ta'sir mexanizmi tadqiq etilgan.

To'qimachilik materiallarini kimyoviy pardoqlash jarayonlari ko'p mehnat, ortiqcha suv va energiya sarfi bilan olib boriladi. Shu maqsadda paxta-ipak aralash tolali gazlamalar tayyorlash va ranglash uchun respublika korxonalarida paxta tolali gazlamalar uchun keng qo'llaniladigan uzlukli va yarimuzlukli usullarda pardoqlashga tayyorlash texnologiyalari asos qilib olindi. Ipak-paxta aralash tolali gazlama tarkibidagi oqsil tolani destruksiya ta'siridan saqlash uchun mavjud bo'lgan tarkibdagi kuchli natriy ishqoriy agent natriy karbonatga almashtirildi, paxta tolasini


tabiiy chiqindilardan to‘liq tozalash uchun Beizol-Do fermentini qo‘llash orqali barcha reagentlarning gazlamaning sifat ko‘rsatkichlariga ta’siri tadqiq etildi.

8-jadval


Aralash tolali xom gazlamalarning sifat ko‘rsatkichlari

Assortiment, %	Yuzaviy zichligi, g/m ²	Oqlik darajasi, %	Kapilyarlik, mm/soat.	Mustahkamlik, cN	Cho‘zilish, %		Havo o‘tkazuvchanlik cm ³ /cm ² ·sek
					Tanda	Arqoq	
Atlas o‘rilishli ipak-paxta 34:66	200	80,6	12	930	27,5	7,7	29,5
Polotno o‘rilishli ipak-paxta 26:74	101	80,3	5	464	31,9	7,7	53,2
Polotno o‘rilishli gazlama Porloq-2	130	81,5	3	440	15	13	120
Polotno o‘rilishli gazlama C-6524	130	79,4	2	429	12	10	115

Paxta-ipak tolali aralashma gazlamalarning kimyoviy pardoqlash bosqichlarini yaratishda izlanish obyekti sifatida tanda iplari ipakdan, arqoq iplari Porloq-2 paxta tolasidan bo‘lgan «Atlas 5/2 o‘rilishli» va «Polotno o‘rilishli» ikki xil aralashma gazlamalari tayyorlangan. «Atlas 5/2» gazlama 34 % ipak va 66 % paxta, «Polotno o‘rilishli» gazlamaning 26 % ipak va 74 % tolaviy tarkibga ega. Dastlab aralash tolali xom gazlamalarning sifat ko‘rsatkichlari tahlil qilingan (8-jadval).



A




B


8-rasm. Ipak-paxta aralashma «Atlas 5/2» o‘rilishli gazlamaning oqlik, kapilyarlik sifat ko‘rsatkichlariga (A)Na₂CO₃ (V)Beizol-Do konsentratsiyasi ta’siri

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, qaynatish jarayonini Na₂CO₃ ning 5 g/l li Beizol-Do 1 g/l li konsentratsiyasida olib borish gazlamaning kapilyarlik, oqlik ko‘rsatkichi GOST 29104.11-91 talablariga mos kelishi aniqlandi.

Ipak-paxta gazlamalarini tayyorlashning yarim uzluksiz elektr, suv sarfi kam bo‘lgan «Urganch Baxmal» MCHJ korxonasi texnologik tizimi va tarkibi, bazaviy texnologiya sifatida olindi:



Pardozlashga tayyorlash jarayonlarida ishlov eritmasi tarkibidagi Na₂CO₃ konsentratsiyasi massasiga nisbatan 2,5 %, H₂O₂ 1,5 % miqdorlari va Beizol-Do fermentni konsentratsiyasining oshishi gazlamaning sifat ko'rsatkichlarini me'yoriy talablarga mos kelishini va shimdirish vaqtini 2 marta kamayishini ta'minladi.



